ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 128 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Hayotovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari..... 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

NIZOLARNING YUZAGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR, SHAXS TOIFALARI VA ULARNING XISLATLARI

Choriyeva Durdona Anvarovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, PhD

Malikova Umida Nurliboy qizi
Nizomiy nomidagi O'zMPU,
Ta'lim va tarbiya nazariyasi (maktabgacha ta'lim) yo'nalishi,
2-kurs magistranti

Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi
Nizomiy nomidagi O'zMPU,
Ta'lim va tarbiya nazariyasi (maktabgacha ta'lim) yo'nalishi,
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada nizolarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, nizoli vaziyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda nizolarda namoyon bo'ladigan shaxs toifalari va ularning individual xislatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda manfaatlar to'qnashuvi, muloqotdagi tushunmovchiliklar, emotsional beqarorlik, xarakter xususiyatlari va ijtimoiy muhitning nizolar rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Maqolada nizolarning oldini olish, ularni konstruktiv boshqarish va shaxslararo munosabatlarda samarali muloqotni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: konfliktologiya, nizo, nizoli vaziyat, shaxs, xarakter, temperament, manfaatlar to'qnashuvi, shaxslararo munosabatlar, nizoli xulq-atvor, emotsional barqarorlik, hamkorlik, murosa.

Abstract: This article examines the objective and subjective conditions that contribute to the emergence of conflicts, their socio-psychological characteristics, and the behavioral patterns and individual traits of people involved in conflict situations. Drawing on theoretical approaches in conflict studies, the article discusses behavioral strategies such as competition, collaboration, compromise, accommodation, and avoidance. Particular attention is given to conflict prevention, constructive conflict management, and the development of effective interpersonal communication.

Key words: conflictology, conflict, conflict situation, personality, character, temperament, competing interests, interpersonal relations, conflict behavior, emotional stability, collaboration, compromise.

Аннотация: В статье рассматриваются объективные и субъективные условия возникновения конфликтов, их социально-психологические особенности, а также типы поведения личности в конфликтных ситуациях и характерные индивидуальные качества. Анализируется влияние столкновения интересов, коммуникативных трудностей, эмоциональной неустойчивости, особенностей характера и социальной среды на возникновение и развитие конфликтов. Особое внимание уделяется профилактике конфликтов, конструктивному управлению конфликтными ситуациями и развитию эффективного межличностного общения.

Ключевые слова: конфликтология, конфликт, конфликтная ситуация, личность, характер, темперамент, столкновение интересов, межличностные отношения, конфликтное поведение, эмоциональная устойчивость, сотрудничество, компромисс.

KIRISH

Inson jamiyatda yashar ekan, turli xarakter, dunyoqarash, ehtiyoj, maqsad va manfaatlarga ega bo'lgan kishilar bilan doimiy munosabatga kirishadi. Ushbu munosabatlar jarayonida fikrlar xilma-xilligi, manfaatlar farqi va qarama-qarshi qarashlarning yuzaga kelishi tabiiy holatdir. Ayrim vaziyatlarda bunday farqlar o'zaro

muhokama va kelishuv orqali bartaraf etilsa, boshqa holatlarda ular keskinlashib, nizolarga sabab bo'ladi. Shu sababli nizolarning kelib chiqish mexanizmlarini, ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni va nizoli vaziyatlarda shaxsning qanday xulq-atvor namoyon etishini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Konfliktologiya nizolarning kelib chiqishi, rivojlanishi, namoyon bo'lishi, boshqarilishi va hal etilishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

A. Ya. Antsupov va A. I. Shipilovning konfliktologiyaga oid ilmiy qarashlarida nizolarni tahlil qilishda ularning sabablari, ishtirokchilarining xususiyatlari va ijtimoiy muhitning ta'sirini kompleks o'rganish zarurligi muhim o'rin tutadi [1].

N. V. Grishinaning konflikt psixologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida esa nizoli vaziyatlarda shaxsning voqealarni idrok etishi, o'zaro munosabatlari va psixologik reaksiyalariga alohida e'tibor qaratiladi [2].

Nizolar oilaviy munosabatlarda, ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida, boshqaruv tizimida va kundalik ijtimoiy hayotda uchraydi. Masalan, oilada avlodlar o'rtasidagi qarashlar farqi, ta'lim muassasasida o'quvchilar yoki talabalar o'rtasidagi raqobat, mehnat jamoasida vazifalarning adolatsiz taqsimlanishi yoki rahbar va xodim o'rtasidagi tushunmovchilik nizoli vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin.

Biroq har qanday qarama-qarshilikni faqat salbiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Nizo ayrim hollarda yashirin muammolarni yuzaga chiqarish, adolatsiz munosabatlarni aniqlash, o'zaro talablarni oydinlashtirish va samarali yechimlarni topish imkonini ham beradi. Uning qanday natija bilan yakunlanishi ko'p jihatdan ishtirokchilarning xulq-atvori, muloqot madaniyati va muammoni hal etishga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, nizolarning shart-sharoitlarini to'g'ri aniqlash va shaxslarning individual xususiyatlarini hisobga olish ularning oldini olish, keskinlikni kamaytirish hamda ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Maqolaning maqsadi - nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi shart-sharoitlarni tahlil qilish, nizoli vaziyatlarda namoyon bo'ladigan shaxs toifalari va ularning xarakterli xislatlarini yoritish hamda nizolarni konstruktiv boshqarish yo'llarini asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nizolarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillar va nizoli vaziyatlarda shaxslarning xulq-atvor xususiyatlarini o'rganish maqsadida ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali nizolarning obyektiv va subyektiv sabablari, shaxs toifalari hamda nizolarni konstruktiv hal etish yo'llari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Nizo - ikki yoki undan ortiq tomonning manfaatlari, maqsadlari, ehtiyojlari, qadriyatlari yoki qarashlari o'rtasidagi qarama-qarshilik o'zaro qarshi harakatlar shaklida namoyon bo'ladigan jarayondir. Nizoning yuzaga kelishi, odatda, bitta sabab bilan emas, balki bir-biri bilan bog'liq bir nechta omillar ta'sirida sodir bo'ladi.

Konfliktologiyada nizoning kelib chiqish sharoitlarini tahlil qilishda obyektiv, tashkiliy-boshqaruv, ijtimoiy-psixologik va individual-psixologik omillarni farqlash muhimdir. Ushbu omillar bir-birini kuchaytirishi yoki ayrim vaziyatlarda nizoning rivojlanishini cheklashi mumkin.

Obyektiv shart-sharoitlar

Obyektiv shart-sharoitlar insonlarning kundalik faoliyati va o'zaro munosabatlarida mavjud bo'lgan tashqi vaziyatlar bilan bog'liq. Bunday omillar tomonlarning shaxsiy xohishidan qat'i nazar, manfaatlar to'qnashuvi uchun zamin yaratishi mumkin.

Birinchidan, resurslarning cheklanganligi nizolarning keng tarqalgan sabablaridan biridir. Vaqt, moddiy boyliklar, moliyaviy imkoniyatlar, lavozim yoki boshqa resurslar cheklangan sharoitda ulardan foydalanish bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, tashkilotda bir nechta xodimning lavozim ko'tarilishiga da'vogarlik qilishi raqobatni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, manfaatlarning mos kelmasligi nizoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Bir tomonning maqsadiga erishishi boshqa tomonning rejasiga xalaqit berishi mumkin. Masalan, oilada ota-ona farzandining kelajak kasbini o'zi belgilashni istashi, farzand esa mustaqil tanlov qilishga intilishi natijasida qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Uchinchidan, ijtimoiy imkoniyatlarning adolatsiz taqsimlanishi ham norozilikni kuchaytiradi. Insonlar o‘z mehnati, huquqi yoki imkoniyatlari boshqalarnikiga nisbatan adolatsiz baholanayotganini sezsa, o‘zaro ishonch pasayishi mumkin.

To‘rtinchidan, noaniq qoidalar va talablar ham nizoga sharoit yaratadi. Vazifalar, huquqlar va majburiyatlar aniq belgilanmaganida, har bir tomon o‘z tushunchasiga asoslanib harakat qiladi. Natijada mas’uliyatni bir-biriga yuklash va o‘zaro ayblash holatlari kelib chiqishi mumkin.

Demak, obyektiv shart-sharoitlar nizoning paydo bo‘lishi uchun zamin yaratadi, biroq ular har doim ham ochiq nizoga olib kelmaydi. Tomonlarning muloqotga tayyorligi, kelishuv mexanizmlari va muammoni hal etish usullari qarama-qarshilikning qanday rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tashkiliy-boshqaruv omillari ta’lim muassasasi, tashkilot yoki mehnat jamoasidagi boshqaruv tartibi, vazifalar taqsimoti va rahbarlik uslubi bilan bog‘liq.

Bunday shart-sharoitlarga vazifalarning noaniq belgilanishi, vakolatlarning bir-birini takrorlashi, mehnat natijalarining adolatsiz baholanishi, axborot almashinuvidagi uzilishlar va rahbarning xodimlarga nisbatan turlicha munosabatda bo‘lishi kiradi.

Tashkiliy nizolarning oldini olish uchun vazifalarni aniq taqsimlash, xodimlarning vakolatlarini belgilash, baholash mezonlarini shaffof qilish va qarorlar haqida o‘z vaqtida ma’lumot berish zarur.

Ijtimoiy-psixologik omillar insonlar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro idrok, ijtimoiy kutishlar va guruh ichidagi munosabatlar bilan bog‘liq. Bunday omillar ayrim hollarda oddiy kelishmovchilikning jiddiy nizoga aylanishiga sabab bo‘ladi.

Ularning muhim ko‘rinishlaridan biri noto‘g‘ri muloqotdir. Xabarni to‘liq yetkazmaslik, gapning mazmunini noto‘g‘ri tushunish yoki qarshi tomonning niyatini taxmin qilish o‘zaro ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Yana bir muhim omil - stereotiplar va oldindan shakllangan salbiy fikrlardir. Inson boshqa tomon haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasdan xulosa chiqarsa, uning xatti-harakatlarini ham salbiy talqin qilishi mumkin.

Shuningdek, o‘zaro hurmatning yetishmasligi, tanqidni shaxsiyatga qaratilgan hujum sifatida qabul qilish, raqobat va guruh ichidagi norasmiy mavqe uchun kurash ham nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Masalan, talaba guruhdoshi unga salom bermaganini ko‘rib, buni mensimaslik deb qabul qilishi mumkin. Aslida esa guruhdoshi uni ko‘rmagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Vaziyat aniqlashtirilmasdan salbiy xulosa chiqarilishi oddiy tushunmovchilikni shaxslararo nizoga aylantirishi mumkin.

Individual-psixologik omillar insonning xarakteri, temperamenti, hissiy barqarorligi, o‘ziga bergan bahosi va muloqot ko‘nikmalari bilan bog‘liq.

Ayrim insonlar tanqidni xotirjam qabul qilib, muammoni muhokama qilishga intilsa, boshqalar keskin javob qaytarishi yoki o‘z pozitsiyasidan voz kechmasligi mumkin. Bunday farqlar nizoli vaziyatning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

O‘z fikrini mutlaq to‘g‘ri deb hisoblash, xatolarini tan olishni istamaslik, sabrsizlik, hissiyotlarni boshqarishda qiyinchilik va boshqalarning fikrini tinglamaslik qarama-qarshilikni kuchaytirishi mumkin. Aksincha, o‘zini tahlil qilish, sabr-toqat, empatiya va muloqot madaniyati nizoni konstruktiv hal etishga yordam beradi.

Biroq shaxsning biror xususiyati uning doimo nizoga moyil ekanini anglatmaydi. Xulq-atvor vaziyat, tarbiya, hayotiy tajriba, charchoq va stress kabi omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Shu sababli nizoning sababini faqat insonning xarakteridan izlash emas, balki vaziyatning barcha jihatlarini hisobga olish lozim.

Nizoning sababi va shart-sharoiti o‘rtasidagi farq

Nizoni ilmiy tahlil qilishda uning sababi va yuzaga kelish shart-sharoitini farqlash muhimdir. Shart-sharoit qarama-qarshilik paydo bo‘lishiga zamin yaratadi, sabab esa nizoning yuzaga chiqishiga bevosita turtki bo‘lishi mumkin.

Masalan, mehnat jamoasida ish hajmining ko‘pligi va xodimlarning kamligi nizoli vaziyat uchun sharoit yaratadi. Vazifalarning bir xodim zimmasiga adolatsiz yuklanishi norozilikning bevosita sababiga aylanishi mumkin. Norozilikning qo‘pol tarzda ifodalanishi esa nizoning ochiq tus olishiga olib kelishi ehtimoli bor.

Shunday qilib, nizoni samarali bartaraf etish uchun nafaqat uning tashqi ko‘rinishini, balki yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillarni ham aniqlash zarur.

Nizoli vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan shaxs toifalari va ularning xislatlari

Nizoli vaziyatlarda insonlar bir xil xulq-atvorni namoyon etmaydi. Ayrimlar o‘z manfaatlarini qat’iy himoya qiladi, boshqalar kelishuvga intiladi, yana birlari nizodan qochishga yoki qarshi tomonning talablariga yon berishga harakat qiladi. Ushbu farqlar insonning individual xususiyatlari, vaziyatni idrok etishi, manfaatlari va avvalgi tajribasi bilan bog‘liq.

Konfliktologiyada nizodagi xulq-atvor strategiyalarini tushuntirish uchun K. Tomas va R. Kilmannning yondashuvi keng qo‘llanadi. Ushbu modelda raqobat, hamkorlik, murosaga kelish, yon berish va qochish kabi

beshta asosiy strategiya ajratiladi [3]. Mazkur strategiyalar insonning o‘zgarmas shaxsiy toifalarini emas, balki muayyan nizoli vaziyatda tanlashi mumkin bo‘lgan xulq-atvor usullarini ifodalaydi.

1. Raqobatga moyil shaxs

Raqobat strategiyasidan foydalanuvchi shaxs nizoli vaziyatda o‘z manfaatlarini himoya qilishga va o‘z qarorining qabul qilinishiga intiladi. U o‘z pozitsiyasini qat’iy ifodalaydi va ayrim vaziyatlarda qarshi tomonning manfaatlariga nisbatan kamroq e’tibor qaratishi mumkin.

Uning asosiy xislatlariga qat’iyatlilik, tashabbuskorlik, o‘z fikrini himoya qilish va tez qaror qabul qilish kiradi. Biroq ushbu strategiya haddan tashqari qo‘llanilsa, murosasizlik, boshqalarning fikrini mensimaslik va munosabatlarning keskinlashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

2. Hamkorlikka moyil shaxs

Hamkorlik strategiyasini tanlaydigan shaxs nizoni tomonlarning manfaatlarini chuqurroq tushunish va o‘zaro maqbul yechim topish imkoniyati sifatida ko‘radi. U muammoni faqat kimning haq yoki nohaqligini aniqlash orqali emas, balki har ikki tomon uchun muhim bo‘lgan ehtiyojlarni hisobga olish orqali hal qilishga intiladi.

Uning asosiy xislatlari faol tinglash, empatiya, ochiq muloqot, sabr-toqat, tahliliy fikrlash va hamkorlikka tayyorlikdan iborat.

Masalan, ikki xodim vazifalarni taqsimlashda kelisha olmasa, hamkorlikka moyil xodim ish hajmini, vaqt imkoniyatlarini va har bir tomonning ehtiyojlarini muhokama qilishni taklif etadi. Natijada muammoning sababini aniqlash va o‘zaro maqbul yechim ishlab chiqish imkoniyati ortadi.

Hamkorlik strategiyasi murakkab va uzoq muddatli munosabatlarda foydali bo‘lishi mumkin. Biroq u vaqt, ochiq muloqot va tomonlarning faol ishtirokini talab qiladi.

3. Murosaga moyil shaxs

Murosaga moyil shaxs nizoni hal etishda har ikki tomonning ayrim talablaridan qisman voz kechishi orqali kelishuvga erishishga intiladi. Ushbu strategiyada tomonlar o‘zaro maqbul natijaga erishish uchun ma’lum darajada yon beradilar.

Bunday shaxsning xislatlariga moslashuvchanlik, amaliy fikrlash, muzokaraga tayyorlik va kelishuv izlash kiradi. Murosaga kelish vaqtni tejash va keskinlikni kamaytirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Masalan, ikki talaba taqdimotning qaysi qismini kim bajarishi haqida kelisha olmasa, ular vazifalarni vaqt va imkoniyatlariga qarab qayta taqsimlaydi. Natijada ikkala tomon ham o‘z talablarining bir qismini o‘zgartiradi va umumiy kelishuvga erishadi.

Biroq har qanday vaziyatda murosaga kelish eng to‘g‘ri yechim bo‘lavermaydi. Huquq, xavfsizlik yoki asosiy axloqiy tamoyillar buzilayotgan holatlarda muhim talablarni shunchaki teng taqsimlash muammoni hal etmasligi mumkin.

4. Yon berishga moyil shaxs

Yon berish strategiyasida inson munosabatlarni saqlab qolish yoki qarama-qarshilikni kamaytirish maqsadida boshqa tomonning talablariga rozi bo‘lishi mumkin.

Bunday xulq-atvorning ijobiy jihatlari muloyimlik, boshqalarning his-tuyg‘ulariga e’tibor, hamjihatlikka intilish va munosabatlarni qadrlash bilan bog‘liq.

Masalan, ikki do‘st sayohat joyini tanlashda kelisha olmasa, ulardan biri ikkinchisining istagini inobatga olib, uning taklifiga rozi bo‘lishi mumkin. Agar masala unchalik muhim bo‘lmasa, bu usul munosabatlarni saqlashga yordam beradi.

Biroq doimo yon berish insonning o‘z manfaatlarini e’tiborsiz qoldirishiga, ichki norozilik to‘planishiga yoki boshqalar tomonidan uning fikri yetarlicha hisobga olinmasligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yon berish ongli tanlov bo‘lishi, doimiy odatga aylanmasligi kerak.

5. Nizodan qochishga moyil shaxs

Nizodan qochish strategiyasini tanlaydigan inson qarama-qarshilikni ochiq muhokama qilishni kechiktirishi yoki undan chekinishi mumkin. Bunday xulq-atvor ba’zan vaziyatni tinchlantirish uchun foydali bo‘ladi.

Masalan, tomonlar juda hayajonlangan paytda suhbatni vaqtincha to‘xtatib, keyinroq davom ettirish nizoning keskinlashishiga yo‘l qo‘ymasligi mumkin.

Bunday shaxsning xislatlari ehtiyotkorlik, keskin suhbatlardan qochish va ziddiyatni darhol hal qilishga intilmaslik bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq muammoni muntazam ravishda chetga surish uning chuqurlashishiga, tushunmovchiliklarning ko‘payishiga va o‘zaro ishonchning pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun nizodan qochishning vaqtinchalik va ongli shakli bilan muammoni doimiy ravishda inkor etish o‘rtasidagi farqni tushunish muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, nizolarning yuzaga kelishi shaxslarning individual xususiyatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, muloqotdagi tushunmovchiliklar hamda ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Nizoli vaziyatlarda shaxslarning xulq-atvori, xarakteri va muammoga munosabati nizoning rivojlanishi hamda hal etilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Nizolarning oldini olish va ularni samarali boshqarish uchun shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, o‘zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlash, murosaga kelish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nizolarni konstruktiv hal etish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология. - Москва: ЮНИТИ-ДАНА.
2. Гришина Н. В. Психология конфликта. - Санкт-Петербург: Питер.
3. Thomas K. W., Kilmann R. H. Thomas-Kilmann Conflict Mode Instrument (TKI).
4. Deutsch M., Coleman P. T., Marcus E. C. The Handbook of Conflict Resolution: Theory and Practice. - San Francisco: Jossey-Bass.
5. Axmedova M. T. Pedagogik konfliktologiya. - O‘quv qo‘llanma.
6. Ernazarova G. O. Pedagogik konfliktologiya. - O‘quv qo‘llanma.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.